

AVTOTRANSPORT VOSITALARINING BAHOLASH QIYMATIGA TA'SIR ETUVCHI ICHKI VA TASHQI OMILLARNI INTEGRAL BAHOLASH MODELI

Norqobilov Jahongir Isroil o'g'li

Qarshi davlat texnika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

norkobilovjakhongir@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0005-4550-8806>

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22080377>

Annotatsiya. Ushbu maqolada avtotransport vositalarining baholash qiymatiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarni tizimli o'rganish hamda ularni yagona integral ko'rsatkich asosida baholash masalalari yoritilgan. Tadqiqotda transport vositasining texnik holati, foydalanish intensivligi, jismoniy va funksional eskirishi, ekspluatatsion xarajatlari kabi ichki omillar, shuningdek, bozor kon'yunkturasi, talab va taklif, narxlar dinamikasi hamda tashqi iqtisodiy sharoitlarning qiymat shakllanishiga ta'siri tahlil qilingan. Ushbu omillarning o'zaro bog'liqligi asosida integral baholash modelini shakllantirishning metodologik asoslari taklif etilgan. Taklif qilinayotgan yondashuv avtotransport vositalarining baholash qiymatini aniqlashda ko'p omilli ta'sirlarni kompleks hisobga olish va baholash natijalarining asoslanganligini oshirishga xizmat qiladi.

Annotation. This article examines the internal and external factors influencing the appraisal value of motor vehicles and explores their assessment through an integrated evaluation model. The study analyzes internal factors, including the technical condition, intensity of use, physical and functional depreciation, and operating costs of vehicles, as well as external factors such as market conditions, supply and demand, price dynamics, and the broader economic environment. Based on the interrelationships among these factors, methodological principles for developing an integrated assessment model are proposed. The suggested approach makes it possible to consider multiple value-forming factors comprehensively and improve the reliability and analytical validity of motor vehicle appraisal results. The proposed model can contribute to a more systematic assessment of vehicle value under changing technical, operational, and market conditions.

Аннотация. В статье рассматриваются внутренние и внешние факторы, влияющие на оценочную стоимость автотранспортных средств, а также вопросы их комплексной оценки на основе интегральной модели. В процессе исследования проанализировано влияние внутренних факторов, включая техническое состояние транспортного средства, интенсивность эксплуатации, физический и функциональный износ, эксплуатационные расходы, а также внешних факторов, связанных с рыночной конъюнктурой, спросом и предложением, динамикой цен и общими экономическими условиями. На основе взаимосвязи указанных факторов предложены методологические подходы к формированию интегральной модели оценки. Предлагаемый подход позволяет комплексно учитывать многофакторное воздействие на формирование оценочной стоимости и повышать обоснованность результатов оценки автотранспортных средств.

Kalit so'zlar: avtotransport vositasi, baholash qiymati, ichki omillar, tashqi omillar, integral baholash, texnik holat, bozor kon'yunkturasi, eskirish, kompleks yondashuv.

Keywords: motor vehicle, appraisal value, internal factors, external factors, integrated assessment, technical condition, market conditions, depreciation, comprehensive approach.

Ключевые слова: автотранспортное средство, оценочная стоимость, внутренние факторы, внешние факторы, интегральная оценка, техническое состояние, рыночная конъюнктура, износ, комплексный подход.

Kirish. Bugungi kunda avtotransport vositalari iqtisodiyotning ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va logistika tizimlarida muhim o'rin egallovchi asosiy iqtisodiy resurslardan biri hisoblanadi. Transport xizmatlariga bo'lgan ehtiyojning kengayishi, avtomobil parking yangilanishi, ikkilamchi transport vositalari bozorining rivojlanishi hamda iqtisodiy muhitdagi o'zgarishlar avtotransport vositalarining baholash qiymatini ilmiy asosda aniqlash zaruratini kuchaytirmoqda. Bunday sharoitda transport vositasining baholash qiymati faqat uning dastlabki narxi yoki texnik parametrlarining oddiy yig'indisi sifatida emas, balki ko'plab ichki va tashqi omillar ta'sirida shakllanadigan murakkab iqtisodiy kategoriya sifatida namoyon bo'ladi. Avtotransport vositasining baholash qiymatini aniqlashda uning texnik holati, foydalanish muddati, ekspluatatsion intensivligi, jismoniy va funksional eskirish darajasi kabi omillar muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, bozor kon'yunkturasi, talab va taklif nisbati, narxlar dinamikasi, iqtisodiy sharoit va raqobat muhiti ham transport vositasining yakuniy baholash qiymatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Demak, baholash jarayonida faqat transport vositasining ichki xususiyatlariga yoki faqat tashqi bozor sharoitlariga tayanish yetarli ilmiy natija bermaydi. Mazkur omillarni o'zaro bog'liq tizim sifatida tadqiq etish baholash natijalarining xolisligi va asoslanganligini oshirishga xizmat qiladi. Dissertatsiya doirasida olib borilgan tadqiqotlarda avtotransport vositalaridan foydalanish xizmatlarini baholashga ta'sir ko'rsatuvchi texnik, ekspluatatsion, tashkiliy va iqtisodiy omillar tizimli yondashuv asosida o'rganilgan. Ushbu jarayonda ko'rsatkichlarni o'zaro bog'liq holda baholash va kompleks natijani shakllantirish zarurligi asoslangan. Shu nuqtai nazardan, avtotransport vositalarining baholash qiymatini shakllantiruvchi omillarni ichki va tashqi guruhlariga ajratish hamda ularning yakuniy natijaga ta'sirini aniqlash mazkur tadqiqotning muhim metodologik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Quyidagi jadvalda avtotransport vositasining baholash qiymatiga ta'sir etuvchi asosiy omillar tizimlashtirilgan.

1-jadval

Avtotransport vositalarining baholash qiymatiga ta'sir etuvchi asosiy ichki va tashqi omillar¹


Omillar guruhi	Asosiy omillar	Baholash qiymatiga ta'sir xususiyati
Ichki omillar	Texnik holat	Transport vositasining foydalanishga yaroqlilik darajasini belgilaydi
	Foydalanish muddati	Eskirish va qoldiq qiymat shakllanishiga ta'sir qiladi
	Ekspluatatsion intensivlik	Agregat va qismlarning yeyilish darajasini tavsiflaydi
	Jismoniy eskirish	Transport vositasining texnik va iqtisodiy holatini pasaytiradi

¹ muallif tomonidan tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari asosida shakllantirilgan

	Funksional eskirish	Zamonaviy talab va texnologiyalarga moslik darajasini belgilaydi
	Texnik xizmat ko'rsatish holati	Transport vositasining saqlanganligi va foydalanish imkoniyatiga ta'sir qiladi
Tashqi omillar	Bozor talabi	Transport vositasiga bo'lgan iqtisodiy ehtiyojni tavsiflaydi
	Bozor taklifi	Narxlarning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi
	Narxlar dinamikasi	Baholash qiymatining vaqt davomida o'zgarishiga sabab bo'ladi
	Makroiqtisodiy sharoit	Umumiy iqtisodiy muhit orqali qiymatga ta'sir qiladi
	Raqobat muhiti	O'xshash transport vositalari qiymati bilan bog'liqlikni belgilaydi
	Resurslar narxi	Ekspluatatsion xarajatlar va foydalanish jozibadorligiga ta'sir qiladi

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, transport vositasining baholash qiymatiga ta'sir qiluvchi omillar turli iqtisodiy mazmunga ega. Ichki omillar transport vositasining bevosita texnik va ekspluatatsion holatini ifodalasa, tashqi omillar uning iqtisodiy va bozor muhitidagi o'rnini tavsiflaydi. Biroq mazkur omillar amaliyotda mustaqil ravishda emas, balki o'zaro ta'sirda namoyon bo'ladi. Shu sababli ularni yagona baholash tizimida birlashtirish muhim metodologik ahamiyat kasb etadi. Dissertatsiya tadqiqotlari doirasida ichki va tashqi omillarning o'zaro ta'sirini hisobga oluvchi ko'p omilli integral baholash yondashuvi ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalarida ichki omillarning umumiy ta'siri 60 foiz, tashqi omillarning ulushi esa 40 foiz miqdorida baholangan. Ushbu nisbat transport vositasining individual texnik va ekspluatatsion xususiyatlari baholash jarayonida muhim o'rin tutishini ko'rsatish bilan birga, tashqi bozor sharoitlarining ham e'tibordan chetda qolmasligi zarurligini anglatadi.

Mazkur jarayonning mantiqiy tuzilishi quyidagi modelda ifodalanadi.



1-rasm. Avtotransport vositalarining baholash qiymatiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarning integral o'zaro bog'liqlik modeli²

1-rasmda aks ettirilgan modelga ko'ra, transport vositasining baholash qiymati ichki va tashqi omillarni oddiy qo'shish orqali emas, balki ularning o'zaro ta'siri va nisbiy ahamiyatini hisobga olish asosida shakllanadi. Ichki omillar transport vositasining mavjud holatini tavsiflasa, tashqi omillar mazkur vositaning bozor sharoitidagi iqtisodiy jozibadorligini belgilaydi. Integral yondashuv esa turli mazmundagi ko'rsatkichlarni umumlashtirib, yakuniy baholash natijasini shakllantirish imkonini yaratadi. Bunday yondashuvning asosiy afzalligi turli o'lchov birliklari va iqtisodiy mazmunga ega ko'rsatkichlarni yagona metodologik tizimga keltirish imkoniyatidadir. Shu maqsadda baholash jarayoni bir necha ketma-ket bosqichlarda tashkil etilishi mumkin.

2-jadval

Avtotransport vositalarining baholash qiymatini integral baholash bosqichlari³

² Muallif ishlanmasi

³ muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Bosqich	Baholash mazmuni	Kutilayotgan natija
1-bosqich	Ichki omillarni aniqlash	Transport vositasining individual holatini tavsiflash
2-bosqich	Tashqi omillarni aniqlash	Bozor va iqtisodiy muhit ta'sirini baholash
3-bosqich	Ko'rsatkichlarni tizimlashtirish	Baholash mezonlarini shakllantirish
4-bosqich	Omillar ta'sirini aniqlash	Har bir omilning nisbiy ahamiyatini belgilash
5-bosqich	Ko'rsatkichlarni normallashtirish	Turli ko'rsatkichlarni taqqoslash imkoniyatini yaratish
6-bosqich	Integral ko'rsatkichni hisoblash	Kompleks baholash natijasini shakllantirish
7-bosqich	Yakuniy natijani tahlil qilish	Ilmiy asoslangan baholash qarorini ishlab chiqish

Shunday qilib, integral baholash modeli transport vositasining qiymatini shakllantiruvchi ko'plab omillarni yagona tizimda ko'rib chiqish imkonini beradi. Bunda alohida ko'rsatkichlarning mavjudligi emas, balki ularning baholash qiymatiga qanday darajada va qaysi yo'nalishda ta'sir ko'rsatayotgani muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda avtotransport vositalarining baholash qiymatiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarni aniqlash, ularni tasniflash hamda yagona integral baholash modeliga birlashtirish uchun o'zaro bog'liq ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasining asosini tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil, ekspert baholash, normallashtirish, vazn koeffitsiyentlarini aniqlash va integral baholash usullari tashkil etdi. Tadqiqotda, avvalo, tizimli yondashuv qo'llanildi. Ushbu yondashuv avtotransport vositasining baholash qiymatini alohida ko'rsatkichlar yig'indisi sifatida emas, balki turli ichki va tashqi omillar o'zaro ta'sirida shakllanuvchi murakkab iqtisodiy tizim sifatida o'rganish imkonini berdi. Bunda texnik holat, foydalanish intensivligi va eskirish kabi ichki omillar hamda bozor kon'yunkturasi, talab va taklif, narxlar dinamikasi kabi tashqi omillar yagona tizim doirasida ko'rib chiqildi. Qiyosiy tahlil usuli yordamida ichki va tashqi omillarning baholash qiymatiga ta'sir xususiyatlari o'zaro solishtirildi. Mazkur usul turli omillarning qiymat shakllanishidagi o'rni, ularning ta'sir yo'nalishi hamda nisbiy ahamiyatini aniqlashga xizmat qildi. Shu asosda baholash jarayonida asosiy va ikkilamchi ta'sirga ega ko'rsatkichlarni ajratish imkoniyati yaratildi. Tadqiqotda iqtisodiy-statistik tahlil usuli transport vositalarining texnik va ekspluatatsion ko'rsatkichlarini umumlashtirish hamda ular o'rtasidagi bog'liqliklarni aniqlashda qo'llanildi. Ushbu usul orqali turli ko'rsatkichlarning o'zgarish tendensiyalari, baholash qiymatiga ta'sir etuvchi asosiy omillar hamda ularning o'zaro aloqadorligi tahlil qilindi. Statistik ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonida ko'rsatkichlarni taqqoslash va umumlashtirish tamoyillaridan foydalanildi.

Omillarning nisbiy ahamiyatini aniqlashda ekspert baholash usuli muhim metodologik vosita sifatida qo'llanildi. Ushbu usul transport vositalarini baholash bilan bog'liq turli omillarning qiymat shakllanishiga ta'sir darajasini mutaxassislar fikri asosida baholash

imkonini beradi. Ekspert baholari asosida omillarning ustuvorlik darajasi aniqlanib, ularga tegishli vazn koeffitsiyentlarini belgilash mumkin bo'ladi. Integral baholash modelini shakllantirishda turli o'lchov birliklariga ega bo'lgan ko'rsatkichlarni yagona mezonga keltirish zarur bo'lganligi sababli ko'rsatkichlarni normallashtirish usuli qo'llanildi. Ushbu jarayon ichki va tashqi omillarni miqdoriy jihatdan taqqoslash hamda ularni umumlashtirilgan hisob-kitob tizimiga kiritish imkonini beradi. Normallashtirish natijasida dastlabki ko'rsatkichlarning o'lchov birliklaridagi farqlar kamaytirilib, ularning integral modeldagi ishtiroki uchun metodologik asos yaratiladi.

Tadqiqotning asosiy metodologik bosqichi vazn koeffitsiyentlari asosida integral baholash modelini shakllantirish bilan bog'liq. Ushbu modelda har bir omilning umumiy baholash natijasiga ta'siri uning iqtisodiy va amaliy ahamiyatidan kelib chiqib belgilanadi. Integral baholash ko'rsatkichi shartli ravishda quyidagicha ifodalanadi:

$$I = \sum_{i=1}^n \omega_i K_i$$

I - avtotransport vositasining baholash qiymatiga ta'sir etuvchi omillarning integral ko'rsatkichi;

K_i - baholash tizimiga kiritilgan normallashtirilgan omillar;

ω_i - tegishli omilning vazn koeffitsiyenti;

n - baholash mezonlari soni.

Mazkur modelda vazn koeffitsiyentlari yig'indisi quyidagi shartga javob berishi lozim:

$$\sum_{i=1}^n \omega_i = 1$$

3-jadval.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodlarning mazmuni va vazifalari⁴

Tadqiqot usuli	Qo'llash yo'nalishi	Asosiy natija
Tizimli yondashuv	Ichki va tashqi omillarni yagona tizim sifatida o'rganish	Omillar tizimini shakllantirish
Qiyosiy tahlil	Omillar va baholash ko'rsatkichlarini solishtirish	Ta'sir xususiyatlarini aniqlash
Iqtisodiy-statistik tahlil	Ko'rsatkichlar dinamikasi va bog'liqligini o'rganish	Asosiy tendensiyalarni aniqlash
Ekspert baholash	Omillarning nisbiy ahamiyatini aniqlash	Vazn koeffitsiyentlarini belgilash
Normallashtirish	Turli ko'rsatkichlarni yagona mezonga keltirish	Taqqoslanadigan ma'lumotlar bazasini yaratish
Integral baholash	Omillarni yagona modelga birlashtirish	Kompleks baholash ko'rsatkichini shakllantirish

⁴ muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Mazkur tadqiqot metodologiyasi avtotransport vositalarining baholash qiymatiga ta'sir etuvchi ko'p sonli va turli mazmundagi omillarni izchil tahlil qilish imkonini beradi. Taklif etilgan metodik yondashuvning asosiy afzalligi ichki va tashqi omillarni alohida ko'rib chiqish bilan cheklanmasdan, ularning nisbiy ta'sirini hisobga olgan holda yagona integral baholash natijasini shakllantirishidir. Natijada ishlab chiqilgan metodologik yondashuv avtotransport vositalarining baholash qiymatini aniqlash jarayonida omillar ta'sirini yanada tizimli hisobga olish, baholash natijalarining asoslanganligini oshirish hamda kompleks iqtisodiy qarorlarni qabul qilish uchun zarur ilmiy-uslubiy asos yaratishga xizmat qiladi.

Tahlillar va asosiy natijalar. Avtotransport vositalarining baholash qiymatini aniqlash amaliyotida qiymatga ta'sir qiluvchi omillar ko'pincha alohida guruhlar kesimida o'rganiladi. Bunday yondashuv transport vositasining texnik holati yoki bozor sharoitlarini mustaqil baholash imkonini bersa-da, qiymatning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarning o'zaro bog'liqligini to'liq aks ettira olmaydi. Mazkur tadqiqot doirasida avtotransport vositasining baholash qiymati ichki va tashqi omillar ta'sirida shakllanuvchi kompleks iqtisodiy natija sifatida qaraldi. Tahlillar natijasida baholash qiymatiga ta'sir qiluvchi omillar ikki asosiy guruhga - **ichki va tashqi omillarga** ajratildi. Ichki omillar bevosita transport vositasining o'ziga xos xususiyatlarini ifodalab, uning texnik holati, foydalanish muddati, ekspluatatsion intensivligi, jismoniy va funksional eskirish darajasi hamda texnik xizmat ko'rsatish holatini qamrab oladi. Ushbu omillar transport vositasining real foydalanish imkoniyatini va uning iqtisodiy salohiyatini tavsiflaydi.

Tashqi omillar esa transport vositasi faoliyat yuritayotgan iqtisodiy va bozor muhitini aks ettiradi. Jumladan, transport vositalariga bo'lgan talab va taklif, bozor kon'yunkturasi, narxlar dinamikasi, raqobat muhiti, ekspluatatsion resurslar qiymati hamda umumiy iqtisodiy sharoitlar baholash qiymatining shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Muhim jihati shundaki, bir xil texnik holatga ega bo'lgan ikki transport vositasining baholash qiymati turli bozor sharoitlarida bir xil bo'lmasligi mumkin. Bu holat tashqi omillarni baholash tizimiga kiritish zaruratini asoslaydi.

Tadqiqot davomida ichki va tashqi omillarning qiymat shakllanishidagi o'rni quyidagicha umumlashtirildi.

4-jadval

Ichki va tashqi omillarning avtotransport vositasi baholash qiymatiga ta'siri⁵

Omillar guruhi	Asosiy ko'rsatkichlar	Baholash qiymatiga ta'sir yo'nalishi
Ichki omillar	Texnik holat	Transport vositasining foydalanishga yaroqliligi va saqlanganlik darajasini belgilaydi
	Ekspluatatsion intensivlik	Yeyilish va eskirish sur'atiga ta'sir qiladi
	Foydalanish muddati	Qoldiq qiymatning shakllanishiga ta'sir etadi
	Jismoniy eskirish	Qiymatning kamayishiga olib keladi

⁵ muallif tomonidan tadqiqot natijalari asosida tuzilgan.

	Funksional eskirish	Zamonaviy texnik talablar bilan moslik darajasini belgilaydi
	Servis va texnik xizmat holati	Transport vositasining iqtisodiy jozibadorligini oshirishi yoki kamaytirishi mumkin
Tashqi omillar	Talab va taklif	Bozor qiymatining shakllanishiga ta'sir qiladi
	Bozor kon'yunkturasi	Transport vositasining sotilish imkoniyatlarini belgilaydi
	Narxlar dinamikasi	Qiymatning vaqt bo'yicha o'zgarishiga sabab bo'ladi
	Iqtisodiy sharoit	Xarid qobiliyati va bozor faolligiga ta'sir qiladi
	Raqobat muhiti	O'xshash transport vositalari bilan qiymat nisbatini belgilaydi
	Ekspluatatsion resurslar narxi	Transport vositasidan foydalanish xarajatlariga ta'sir ko'rsatadi

4-jadvaldagi tahlil shuni ko'rsatadiki, baholash qiymatini shakllantirishda barcha omillarning ta'siri bir xil emas. Ayrim omillar transport vositasining real holatini bevosita tavsiflasi, boshqalari uning bozor sharoitidagi iqtisodiy jozibadorligini belgilaydi. Shu sababli mazkur omillarni oddiy arifmetik yig'indi sifatida qabul qilish ilmiy jihatdan yetarli emas. Har bir omilning baholash natijasiga ta'sir darajasini aniqlash uchun ularning **nisbiy ahamiyatini hisobga olish** talab etiladi. Mazkur muammoni hal qilish uchun muallif tomonidan ichki va tashqi omillarni alohida integral ko'rsatkichlarga umumlashtirish asosida baholash modeli taklif etiladi. Modelning umumiy ko'rinishi quyidagicha ifodalanadi:

$$I_b = \alpha I_{ichki} + \beta I_{tashqi}$$

bu yerda:

I_b - baholash qiymatiga ta'sir etuvchi omillarning umumiy integral ko'rsatkichi;

I_{ichki} - ichki omillarning integral ko'rsatkichi;

I_{tashqi} - tashqi omillarning integral ko'rsatkichi;

α - ichki omillarning vazn koeffitsiyenti;

β - tashqi omillarning vazn koeffitsiyenti.

Bunda quyidagi shart bajariladi:

$$\alpha + \beta = 1$$

Taklif etilgan yondashuvda ichki va tashqi omillarning vaznini amaliy ma'lumotlar va ekspert baholash natijalariga qarab aniqlash mumkin. Shu jihatdan integral model qat'iy o'zgaras koeffitsiyentlarga emas, balki baholash obyekti va bozor sharoitining xususiyatlariga moslashtiriladigan tizim sifatida qaraladi.

Ichki omillarning integral ko'rsatkichi quyidagi umumiy shaklda aniqlanishi mumkin:

$$I_{ichki} = \sum_{i=1}^n \omega_i X_i$$

bu yerda X_i - normallashtirilgan ichki ko'rsatkichlar, ω_i esa ularning nisbiy vazn koeffitsiyentlarini anglatadi.

Xuddi shuningdek, tashqi omillarning integral ko'rsatkichi quyidagicha shakllantiriladi:

$$I_{tashqi} = \sum_{j=1}^n v_i Y_i$$

bu yerda Y_i - tashqi muhitni tavsiflovchi normallashtirilgan ko'rsatkichlar, v_i esa ularning baholash natijasidagi nisbiy ahamiyatini ifodalovchi koeffitsiyentlardir.

Taklif etilayotgan integral modelning asosiy afzalligi shundaki, u turli o'lchov birliklari va mazmunga ega ko'rsatkichlarni yagona natijaga birlashtirish imkonini beradi. Masalan, texnik holat sifat jihatidan, ekspluatatsion intensivlik miqdor jihatidan, bozor kon'yunkturasi esa iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida tavsiflanishi mumkin. Ularni normallashtirish va vazn koeffitsiyentlari orqali umumlashtirish baholash jarayonining tizimlilikini oshiradi.

5-jadval

Integral baholash modelini shakllantirishning asosiy bosqichlari⁶

Bosqich	Amalga oshiriladigan jarayon	Natija
1	Baholash obyektni aniqlash	Transport vositasi bo'yicha dastlabki ma'lumotlar shakllantiriladi
2	Ichki omillarni tanlash	Texnik va ekspluatatsion ko'rsatkichlar aniqlanadi
3	Tashqi omillarni tanlash	Bozor va iqtisodiy muhit ko'rsatkichlari shakllantiriladi
4	Ko'rsatkichlarni normallashtirish	Taqqoslanadigan indikatorlar tizimi yaratiladi
5	Vazn koeffitsiyentlarini aniqlash	Omllarning nisbiy ahamiyati belgilanadi
6	Guruhli integral indekslarni hisoblash	Ichki va tashqi integral ko'rsatkichlar olinadi
7	Umumiy integral natijani shakllantirish	Baholash qiymatiga ta'sirning kompleks ko'rsatkichi aniqlanadi

Tadqiqot natijalariga ko'ra, baholash qiymatini shakllantirishning an'anaviy usullarini integral yondashuv bilan to'ldirish baholash jarayonining analitik imkoniyatlarini kengaytiradi. Bunda integral ko'rsatkich baholash qiymatining o'rnini to'liq bosuvchi mustaqil narx sifatida emas, balki transport vositasining qiymat shakllanishiga ta'sir qiluvchi ichki va tashqi omillarning umumlashtirilgan ta'sir darajasini ifodalovchi analitik indikator sifatida qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir. Mualliflik yondashuvining asosiy natijasi shundan iboratki, avtotransport vositasining baholash qiymatini aniqlashda texnik holat va bozor ko'rsatkichlarini bir-biridan ajratilgan holda tahlil qilish o'rniga, ularning o'zaro ta'sirini hisobga oluvchi ikki pog'onali integral tizimdan foydalanish taklif etiladi. Birinchi pog'onada ichki va tashqi omillar bo'yicha alohida indekslar shakllantiriladi, ikkinchi pog'onada esa mazkur indekslar tegishli vazn koeffitsiyentlari asosida umumlashtiriladi. Mazkur yondashuvning ilmiy ahamiyati shundaki, u baholash qiymatining shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillarni faqat ro'yxatlash bilan cheklanmay, ularni miqdoriy baholash, taqqoslash va kompleks tahlil qilish imkoniyatini yaratadi. Amaliy jihatdan esa taklif etilgan model baholovchi

⁶ Muallif ishlanmasi

mutaxassislar uchun transport vositasining individual xususiyatlari va bozor muhitini bir vaqtda hisobga olishga yordam beradigan qo‘shimcha analitik vosita sifatida foydalanilishi mumkin.

Xulosa va takliflar.

Olib borilgan tadqiqot va tahlillar asosida avtotransport vositalarining baholash qiymati ko‘p omilli iqtisodiy natija ekanligi aniqlandi. Mazkur qiymat transport vositasining faqat texnik holati yoki dastlabki xarid qiymati bilan belgilanmaydi. Uning shakllanishida transport vositasining ichki xususiyatlari va tashqi iqtisodiy-bozor muhiti o‘zaro bog‘liq holda ishtirok etadi.

Birinchidan, tadqiqotda baholash qiymatiga ta’sir etuvchi omillar ichki va tashqi guruhlariga tizimlashtirildi. Ichki omillar transport vositasining texnik, funksional va ekspluatatsion holatini ifodalasa, tashqi omillar bozor kon’yunkturasi, talab va taklif, narxlar dinamikasi hamda iqtisodiy muhit bilan bog‘liq jarayonlarni tavsiflashi asoslandi.

Ikkinchidan, tahlillar ichki va tashqi omillar o‘rtasida funksional bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. Transport vositasining yuqori texnik holati bozor sharoitida talab mavjud bo‘lgan taqdirdagina yuqori iqtisodiy qiymatga aylanishi mumkin. Aksincha, qulay bozor sharoiti texnik va ekspluatatsion jihatdan qoniqarsiz transport vositasining qiymatini cheksiz oshirib yubormaydi. Shu sababli qiymatni aniqlashda mazkur omillardan faqat bittasiga ustuvor ahamiyat berish baholash natijasining aniqligini cheklashi mumkin.

Uchinchidan, avtotransport vositalarini baholashga nisbatan integral yondashuv taklif etildi. Ushbu yondashuv ichki va tashqi omillarni alohida indekslar ko‘rinishida shakllantirib, keyinchalik ularni vazn koeffitsiyentlari yordamida yagona umumiy ko‘rsatkichga birlashtirishga asoslanadi. Taklif etilgan integral indeks baholash qiymatini bevosita almashtirmaydi, balki qiymat shakllanishiga ta’sir etuvchi omillarning umumiy holatini tavsiflovchi qo‘shimcha analitik vosita sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

Birinchidan, avtotransport vositalarini baholash amaliyotida ichki va tashqi omillar uchun yagona tasniflash tizimini joriy etish maqsadga muvofiq. Bu baholash jarayonida muhim omillarning e’tibordan chetda qolishining oldini oladi.

Ikkinchidan, baholash jarayonida texnik holat, foydalanish intensivligi, eskirish va servis tarixi bilan bir qatorda transport vositalari bozoridagi talab, taklif va narxlar dinamikasini muntazam hisobga olish tavsiya etiladi.

Uchinchidan, turli mazmundagi ko‘rsatkichlarni o‘zaro taqqoslash uchun ularni normallashtirish va vazn koeffitsiyentlari asosida baholash metodidan foydalanish lozim. Bunda vazn koeffitsiyentlari barcha transport vositalari uchun bir xil belgilanmasdan, baholash obyektining turi, foydalanish sohasi va mavjud bozor sharoitiga mos ravishda aniqlanishi kerak.

To‘rtinchidan, taklif etilgan integral baholash modeli amaldagi qiyosiy, xarajat va daromad yondashuvlarini almashtirish vositasi sifatida emas, balki ularning natijalarini yanada asosli talqin qilishga yordam beruvchi qo‘shimcha analitik mexanizm sifatida qo‘llanishi maqsadga muvofiq.

Beshinchidan, kelgusida mazkur modelni amaliy ma’lumotlar asosida sinovdan o‘tkazish, transport vositalarining alohida turlari bo‘yicha omillarning vazn koeffitsiyentlarini aniqlash

hamda statistik bog‘liqliklarni ekonometrik usullar yordamida tekshirish tadqiqotning istiqbolli yo‘nalishi hisoblanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O‘zbekiston Respublikasining Yagona milliy baholash standarti. O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi direktorining 2023-yil 25-oktabrdagi tegishli buyrug‘i bilan tasdiqlangan, keyingi o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan.
2. Milliy baholash standarti №15. “Transport vositalari qiymatini baholash”. O‘zbekiston Respublikasining Yagona milliy baholash standarti doirasidagi transport vositalarini baholashga oid maxsus talablar.
3. Transport vositalari qiymatini baholash bo‘yicha metodika (NSO №15 ga ilova). Transport vositalarining texnik holati, bozor kon‘yunkturasi, ehtiyot qismlar va servis xarajatlari kabi omillarni hisobga olish metodikasi.
4. Rasulov M. *Methodological and Practical Issues of Evaluating the Value of Vehicles: Insights from Foreign Experience*. // EPRA International Journal of Economics, Business and Management Studies. – 2023. – Vol. 10, Issue 5.
5. Artemenkov A.I., Ganiev O., Medvedeva O. *Value-based Economic Measurements in Uzbekistan: in Search of Fundamental Basis*. – 2025. Ushbu manba qiymatga asoslangan iqtisodiy o‘lchash va professional baholash metodologiyasining nazariy masalalarini yoritadi.
6. Baric D., Zeljko L. *Multi-criteria Decision-Making on Road Transport Vehicles by the AHP Method*. // Archiwum Motoryzacji. – 2021. – Vol. 94, No. 4. – P. 17–26.
7. Ho W. *Integrated Analytic Hierarchy Process and Its Applications – A Literature Review*. // European Journal of Operational Research. – 2008. – Vol. 186. – P. 211–228.
8. State-of-the-Art Review on Multi-Criteria Decision-Making in the Transport Sector. // Journal of Traffic and Transportation Engineering (English Edition). – 2020. – Vol. 7, Issue 4. – P. 413–431.
9. Mattingly S.G., Jayakrishnan R., McNally M.G. *Determining the Overall Value of Implemented New Technology in Transportation: Integrated Multiple Objective-Attribute Methodology*. // Transportation Research Record. – 2000.
10. Dolce J. *Vehicle Life Cycle Costing*. // Commercial Carrier Journal. – 1989. – Vol. 146, No. 1. – P. 64–66.
11. Методическое руководство по определению стоимости автотранспортных средств с учетом естественного износа и технического состояния на момент предъявления. РД 37.009.015–98. Mazkur manbada transport vositalari qiymatiga tashqi ta‘sir, funksional va iqtisodiy eskirish omillari metodologik jihatdan yoritilgan.
12. Comparing Resale Prices and Total Cost of Ownership for Gasoline, Hybrid and Diesel Passenger Cars and Trucks. // Transportation Research Part D: Transport and Environment. Ushbu tadqiqot transport vositalarining qayta sotish qiymatiga ichki xususiyatlar bilan bir qatorda yangi modellar, taklif va boshqa tashqi bozor omillari ta‘sirini tahlil qiladi.
13. Transport vositalari qiymatini baholash bo‘yicha O‘zbekiston amaliyoti va kompleks metodik yondashuvlar. Transport vositalari qiymatini xarajat, qiyosiy va boshqa yondashuvlar natijalarini muvofiqlashtirishga oid tadqiqot materiallari.
14. International Valuation Standards Council (IVSC). International Valuation Standards (IVS). Xalqaro baholash standartlari transport va boshqa aktivlarni baholashda qiymat bazalari,

ma'lumotlar hamda baholash modellarini tanlashning umumiy metodologik asoslarini belgilaydi.

15. Saaty T.L. *The Analytic Hierarchy Process: Planning, Priority Setting, Resource Allocation*. – New York: McGraw-Hill, 1980.